



---

**INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA  
TEKNOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11608676>

**G.B.Butayeva**

*Farg'ona davlat universiteti aniq va tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**N.O.Raxmatova**

*Farg'ona davlat universiteti aniq va tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**R.Boyboboyev**

*Farg'ona davlat universiteti aniq va tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsia**

Ushbu maqolada Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishda uziliksiz ta'lim tizimida ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda, dars jarayonini tashkil etishda, dars shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish.

**Annotation**

In this article, on the basis of the innovative approach, in the formation of technological competences in students in the continuous education system, in the training of pedagogues who perform innovative activities in educational institutions, in the organization of the lesson process, the application of innovative educational technologies in the use of lesson forms, methods and tools.

**Аннотация**

В данной статье на основе инновационного подхода при формировании технологических компетенций у обучающихся в системе непрерывного образования, при подготовке педагогов, осуществляющих инновационную деятельность в образовательных организациях, при организации учебного процесса применяются инновационные образовательные технологии в использовании форм, методов и средств уроков.

**Kalit so'zlar**

Texnologik ta'lim, kompetentsiya, mexanizm, metodik, innovatsion, pedagogik, estetik va gigienik, globallashtirish, ta'limni integratsiyalashtirish

Mavzuning dolzarbligi: Uziliksiz ta'lim tizimida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagoglarni tayyorlash jarayonini tezlashtirish va pedagogik mahoratini yanada takomillashtirish masalalariga o'rganishga qaratilgan.



Umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilarida innovatsion yondashuv asosida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari, mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari pedagogik muammo sifatida oʻrganildi. Bunda biz ularga pedagogik hodisalarni yuzaga keltiruvchi, amalga oshirish va rivojlantirishga taʼsir koʻrsatuvchi muhit va vaziyat omillar sifatida munosabat bildiramiz.

Hozirgi kunda taʼlim sohasi yoki oʻquv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qoʻllanilib, yuqori samarali natijani kafolatlay oladigan dars shakli, metodi va AKT vositalaridir.

Taʼlim tizimida yoki oʻquv faoliyatida innovatsiyalarni qoʻllashda kam sarflangan mablagʻ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi koʻzlanadi.

Innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish shakli sifatida innovatsion loyiha fan va texnikaning ustuvor yoʻnalishlarida aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan oʻzaro bogʻliq va oʻzaro bogʻliq manbalar, ish vaqtlari va amalga oshiruvchilarning murakkab tizimini anglatadi. Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonida bu innovatsiyalarga olib keladigan maʼlum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladigan ilmiy, texnologik, ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyatining majmui. Shu bilan birga, innovatsion loyiha - bu loyihaning maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan texnik, tashkiliy, rejalashtirish va hisob-kitob va moliyaviy hujjatlar toʻplami. Loyihaning mohiyati eng toʻliq va har tomonlama uning birinchi tomonida namoyon boʻladi.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilish mexanizmga ega. Bu esa taʼlim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni dars jarayoniga tadbiq etishda asosiy omil boʻlib hizmat qiladi.

Oʻqitishning innovatsion harakterga ega boʻlgan "Interfaol taʼlim"ning innovatsion dars-shakli. Interfaol taʼlim taʼlim samaradorligini oshirishning eng maqbul yoʻli sifatida eʼtirof etilayotgan taʼlim turi va oʻqitish shakli sanaladi.

Interfaol taʼlim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" - oʻzaro, "act" - harakat qilmoq) - talabalarning bilim, koʻnikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni oʻzlashtirish yoʻlidagi oʻzaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi taʼlimdir.

Mohiyatiga koʻra interfaollik talabalarning bilim, koʻnikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni oʻzlashtirish yoʻlida birgalikda, oʻzaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat(dialog), oʻzaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi :

- o'qituvchi – talaba;
- an'anaviy ta'limdagi suhbat ishtirokchilari;
- o'qituvchi – talabalar guruhi (jamoasi).

Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Jamiyatda ta'lim rolining o'zgarishini ko'p jihatdan innovatsion jarayonlar belgilab beradi. Avvallari ta'lim o'quvchilarni "hayotga tayyorlashga", ularda bilim, malaka, informatsion va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadiga qaratilgan bo'lsa, endilikda shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalar va uslublarni yaratishga ko'proq yo'naltirilmogda. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar o'rtasidagi muvozonatni ta'minlashga, o'z-o'zini rivojlantirish (o'z-o'zini kamol toptirish, mustaqil ravishda bilimni oshirish)ga, shaxsning o'z individualligini namoyon etishi va jamiyatdagi o'zgarishlarga tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ko'plab ta'lim muassasalari o'z faoliyatiga innovatsion ta'lim elementlarini kiritdi, natijada tezroq rivojlanish ehtiyoji va pedagoglarning buni tezda amalga oshira olmasligi o'rtasida jiddiy ziddiyatlar yuzaga keldi. Maktab ta'limini zamonaviy nuqtai nazardan innovatsion rivojlantirish, yuzaki qaraganda ancha oson tuyuladi, ammo bu ancha murakkab ish bo'lib bunda "yangi", "yangilik", "innovatsiya", "innovatsion jarayonlar", "innovatsion ta'lim", "innovatsion texnologiyalar" kabi tushunchalarni zamonaviy nuqtai nazardan puxta o'zlashtirish va ularga tayanish zarur bo'ladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlar mamlakat va jamiyat hayotidagi, ta'lim sohasidagi innovatsion yondashuvlar bilan uzviy bog'liq. Innovatsion yondashuvlar bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Innovatsion texnologiyalar – bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'sirlashishining prinsipial jihatdan yangi uslub va metodlari bo'lib, ular pedagogik faoliyatda samarali natijalarga erishishni ta'minlaydi.



“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya tushunchasi quyidagi ma‘nolarni anglatadi: “Innovatsiya (inglizcha innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro)

- texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar;

- ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”

O‘qituvchi innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarni texnologik kompetensiyasini shakllantirish uchun, eng avvalo, pedagogik innovatsiyalar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Pedagogik innovatsion jarayonlar G‘arb davlatlarida o‘tgan asrning 50 yillari oxirlaridan boshlab, mustaqil O‘zbekistonda esa, keyingi 10 yillikda olimlar tomonidan maxsus o‘rganila boshlangan. So‘nggi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innovatsion bozor, pedagogik innovatsiyalar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta‘limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun pedagoglar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular:

1. Ta‘lim jarayoniga jamoadagi barcha o‘quvchilarning to‘la qamrab olinishi.
2. Talabalarning mashg‘ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish.
3. Talabalar sonining ko‘p bo‘lmasligi (25-30 nafar o‘quvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samaralidir).
4. O‘quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, “Jonli liniya” kabi shakllarda joylashtiriladi).
5. Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi.
6. Talabalarning kichik guruhlarga mohirona birlashtirilishi (har bir guruhda faol, nafaol talabalarning teng miqdorda bo‘lishi).

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada talabalar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.

Bugungi kunda jahon ta‘lim tizimida interfaol ta‘limning boshqa shakllari ham dars jarayoniga tadbiiq etilmoqda. Jumladan bugungi kunda respublika ta‘lim muassasalarida interfaol ta‘limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blis-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va boshqalar.
2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va hakazo.



3. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar. Interfaol ta'lim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G. J. Rajabova texnologik jarayonlarni loyihalash
2. O'. O. Tohirov, D. S. Mirahmedova, Z. S. Shamsiyeva Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik
3. Sharipov Sh. S., Qo'ysinov O. A., Toxirov O'. O., Abdullayeva Q. M., Nasrullayeva F. A., Madaipov A. A. Texnologiya [Matn] : 6-sinf uchun darslik / - Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2021
4. Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., Malikov A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari. – T.: ToshDTY, 2007.
5. M.M.Axmedov, Bo'tayeva Gulmira Boxodirjonovna //Texnologiya fanida texnologik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish// O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 12-son. 19.10.2022. 745-750 betlar
6. M. Akhmedov, G. T. Khojkarimova, G. B. Butayeva // Didactic features of the method of preparation of "innovative development of the topic" based on the principle of "lifelong learning" in the organization and improvement of management activities of technological educational // Modern Journal of Social Sciences and Humanities ISSN: 2795-4846 Vol. 4 (2022)
7. M.M.Ahmedov, Z.A.Teshaboev, G.Bo'taeva M.Madaminova //Pedagogik mahorat ta'lim jarayonining muhim omili // ishlab chiqarishning texnik, muhandislik va texnologik muammolarining innovatsion yechimlari mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-texnik anjumani materiallari to'plami 4- Qism (2022 yil 28-29-oktabr)
8. M.M.Ahmedov, G.B.Butayeva //Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish hususiyatlari// interdiscipline innovation and scientific research conference International scientific-online conference.Part 4 (15.12.2022yil)LONDON 2022 49- 54 betlar.
9. Парпиева, О. Р., Хожикаримова, Г. Т., & Назирова, А. М. (2021). FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. Экономика и социум, (6-2), 157-161.
10. Rakhmanovna, P. O., & Tairovna, I. Z. (2023). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TYPES. Scientific Impulse, 1(10), 950-955.



11. Парпиева, О. Р., & Раззоков, Б. Х. (2022). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific Impulse, 1(5), 1204-1207.

12. Парпиева, О. Р., & Назирова, А. М. (2021). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИ ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Экономика и социум, (6-2 (85)), 157-161.